

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 732,8 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 260,0 mln AQSH dollariga yoki 55,0 %ga ko'paygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-noyabr, mln AQSh dollar)




	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	472,8	732,8	155,0%	X
Eksport	214,0	233,5	109,1%	100,0
tovarlar	197,5	219,3	111,0	93,9
xizmatlar	16,5	14,2	86,1	6,1
Import	258,8	499,3	192,9	100,0
tovarlar	258,8	499,3	192,9	100,0
Saldo	-44,9	-265,8	x	x

Eksport hajmi 233,5 mln AQSH dollarari (9,1 %ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 499,3 mln AQSH dollarini (92,9 %ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida 265,8 mln AQSH dollarari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rnlarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rnlarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtaida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi %da)**



Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahoning 133 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (24,0 %), Rossiya Federatsiyasi (19,8 %), Turkiya (14,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,6 %), Qozog'iston (7,3 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini

bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, mln AQSH dollarri)**


Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Braziliya	20,2	0,0	175,7
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	20,2	0,0	175,7
Saldo	-20,2	0,0	-175,7
Rossiya Federatsiyasi	128,6	100,5	145,4
Eksport	45,0	62,4	89,8
Import	83,6	38,1	55,6
Saldo	-38,6	24,3	34,2
Turkiya	43,1	88,2	107,5
Eksport	16,3	27,5	23,8
Import	26,8	60,7	83,7
Saldo	-10,5	-33,2	-59,9
Xitoy Xalq Respublikasi	68,0	114,0	99,6
Eksport	13,3	22,3	9,5
Import	54,7	91,7	90,1
Saldo	-41,4	-69,4	-80,6

Davlat nomi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Qozog'iston	23,4	26,7	53,5
Eksport	20,1	19,9	42,7
Import	3,3	6,8	10,8
Saldo	16,8	13,2	31,9
Qirg'iziston Respublikasi	37,0	36,3	29,5
Eksport	36,7	36,1	28,7
Import	0,3	0,2	0,8
Saldo	36,4	35,9	27,9
Hindiston	3,1	0,8	12,5
Eksport	0,3	0,3	0,3
Import	2,8	0,5	12,2
Saldo	-2,6	-0,2	-11,9
Litva	1,9	3,7	12,0
Eksport	0,0	0,3	0,5
Import	1,9	3,4	11,5
Saldo	-1,9	-3,1	-11,0
Turkmaniston	8,9	10,6	10,6
Eksport	4,2	5,9	3,8
Import	4,7	4,7	6,8
Saldo	-0,5	1,2	-3,0
Pokiston	1,4	10,1	10,2
Eksport	1,2	9,2	9,9
Import	0,2	0,9	0,3
Saldo	1,0	8,3	9,6



**XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKATLARI VA BOSHQQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-noyabr, mln AQSH dollari, ulushi, %da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yilning yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,2 %ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022 - yilning yanvar-noyabr oylarida 2021 - yilning shu davriga nisbatan 68,7 foizga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 64,8 %ni tashkil etdi.


**XORAZM VILOYATINING EKSPORTI
(2022- yil yanvar-noyabr)**

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning eksportyrorlari soni 166 tani tashkil etib, ular tomonidan 233,5 mln AQSH dollarini (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 9,1 %ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 93,9 %ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (42,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (33,7 %), turli xil tayyor buyumlar (12,3 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



**XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)**



- █ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 33,7
- █ Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- █ Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari – 2,4 %
- █ Mineral yoqilg‘i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar – 1,9 %
- █ Hayvon va o’simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,6 %

- █ Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar – 0,3 %
- █ Sanoat tovarlari – 42,7 %
- █ Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,1 %
- █ Turli xil tayyor buyumlar – 12,3 %
- █ Xizmatlar – 6,1 %



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-noyabr)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln.AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln AQSH dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	233,5	109,1	100,0	173,3	129,6	100,0	60,2	75,0	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	78,6	118,0	33,7	67,1	127,8	38,7	11,6	81,6	19,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	12,6 m.	0,0	0,0	-	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,5	59,8	2,4	1,2	61,2	0,7	4,3	59,4	7,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	4,5	5,9 m.	1,9	3,3	5,3 m.	1,9	1,2	8,6 m.	2,0
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	19,1 m.	0,6	0,3	3,9 m.	0,2	1,1	-	1,7
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	84,5	0,3	0,7	129,5	0,4	0,0	1,3	0,0
Sanoat tovarlari	99,7	95,4	42,7	63,8	123,0	36,8	36,0	68,2	59,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	0,2	51,3	0,1	0,1	29,0	0,1	0,1	12,7 m.	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	28,7	191,5	12,3	27,7	185,8	16,0	1,0	11,2 m.	1,7
Xizmatlar	14,2	86,1	6,1	9,2	84,7	5,3	5,0	89,0	8,3

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va turli hil tayyor buyumlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yilning yanvar-noyabriga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), mashinalar va transport asbob- uskunalar , kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar eksportida pasayish kuzatildi.




**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, %da)**

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
	Jami	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	30,3	31,1	33,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	9,6	4,3	2,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,4	1,9
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,4	0,0	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,4	0,4	0,3
Sanoat tovarlari	39,2	48,9	42,7
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	0,1	0,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	14,4	7,0	12,3
Xizmatlar	4,4	7,7	6,1




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, mln AQSH dollarri, ulushi %da)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarii yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiyligi hajmining 38,5 %), Qozog'iston (18,3 %), Qirg'iziston (12,3 %), Turkiya (10,2 %), Pokiston (4,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (4,1%) va Tojikiston (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagagi umumiyligi ulushi 89,3 foizni tashkil etmoqda.





**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-noyabr, %da)**



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikasi o'rinni egallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-noyabr)**

Davlatlar	Mln AQSH dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	62,4	89,8	138,6	143,9	1	1
Qozog'iston	19,9	42,7	99,1	2,1 m.	5	2
Qirg'iziston Respublikasi	36,1	28,7	98,2	79,6	2	3

Rossiya
Federatsiyasi

62,4

89,8

138,6

143,9

1

1

Qozog'iston

19,9

42,7

99,1

2,1 m.

5

2

Qirg'iziston
Respublikasi

36,1

28,7

98,2

79,6

2

3

Davlatlar	Mln AQSH dollarri		O'sish sur'ati, %da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Turkiya	27,5	23,7	169,2	86,3	3	4
Pokiston	9,2	9,9	7,9 m.	107,8	6	5
Xitoy Xalq Respublikasi	22,2	9,5	167,4	42,6	4	6

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xom ashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollarri)**


XSST tarkibi	Rossiya		Qozog'iston		Qirg'iziston		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	62,4	89,8	19,9	42,7	36,1	28,7	27,5	23,7

Shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18,7	34,5	11,3	31,3	17,1	0,0	0,6	0,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	-	0,0	-	-	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	0,8	0,0	0,2	0,9	0,0	1,4	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,5	3,2	0,1	0,0	0,0	-	0,0	0,4
Hayvon va o'simlik lar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	-	0,0	0,0	0,0	0,0

XSST tarkibi	Rossiya		Qozog'iston		Qirg'iziston		Turkiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	0,1	0,0	0,0	0,0	0,1	0,3	-
Sanoat tovarlari	34,6	42,5	3,0	4,7	8,6	9,4	25,0	21,6
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	-	0,0	0,0	0,0	0,4	0,0	0,0	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	1,6	4,8	6,3	9,1	19,1	0,1	1,0
Xizmatlar	7,8	7,1	0,7	0,1	0,0	0,0	0,2	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 14,2 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 6,1 %ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 86,1 foizni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (50,5%), safarlar (turizm) (25,5 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (24,1%) hissasiga to'g'ri kelgan.





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 76,6 mln dollar qiymatli yoki 143,9 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 35,0 mln AQSH dollariga teng 79,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 19,8 mln AQSH dollari qiymatidagi 32,8 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 32,8 %ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2022- yil yanvar-noyabr, mln AQSH dollari)

Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay

tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (45,3 %), Qozog'iston (39,6%) va Pokiston (11,3%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-noyabr)

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning import hajmi 499,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 192,9% ni tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,6%), mashinalar va transport asbob-uskunalar (37,3 %), nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari 7,2 %), sanoat tovarlari (6,6 %), turli xil tayyor buyumlar (4,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)





Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2022- yilning yanvar-noyabrida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 240,4 mln AQSH dollariga ko`paygan va 499,3 mln AQSH dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-noyabr)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da	mln AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da	mln AQSh dollari	o`tgan yilga nisbatan, %da	umumiylajmga nisbatan, %da
Jami import	499,3	192,9	100	84,5	146,6	100,0	414,8	206,1	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	188,0	10,5 m.	37,6	7,5	67,9	8,9	180,4	26,3 m.	43,5
Ichimliklar va tamaki	0,1	158,2	0,0	0,1	158,2	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari	35,9	143,8	7,2	32,6	150,6	38,6	3,2	98,5	0,8

Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	7,9	3,3 m.	1,6	4,4	2,5 m.	5,2	3,6	5,6 m.	0,9
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	3,0	108,5	0,6	2,6	100,8	3,1	0,4	199,8	0,1
Kimyoiyi vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	22,4	135,1	4,5	13,3	3,1 m.	15,7	9,1	74,1	2,2
Sanoat tovarlari	33,2	186,7	6,6	11,2	156,2	13,2	22,0	2,1 m.	5,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	186,3	180,9	37,3	10,4	2,6 m.	12,3	176,0	177,8	42,4
Turli xil tayyor buyumlar	22,4	30,6	4,5	2,5	49,7	2,9	20,0	29,2	4,8



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2022- yil yanvar-noyabr, ulushi, %da)**

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0


shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,5	6,9	37,6
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,7	9,6	7,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,9	0,9	1,6

XSST tarkibi	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,3	1,1	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,1	6,4	4,5
Sanoat tovarlari	5,9	6,9	6,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	27,6	39,8	37,3
Turli xil tayyor buyumlar	19,1	28,3	4,5



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-noyabr, mln AQSH dollarri, ulushi %da)**



2022- yil yanvar-noyabr oylarida import bo'yicha eng yuqori yettitalikda Braziliya, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Litva hamda Qozog'iston o'rinni egalladi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-noyabr)**

Davlatlar	Min AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Braziliya	-	175,7	-	-	-	1
Xitoy Xalq Respublikasi	91,7	90,1	167,8	98,2	1	2
Turkiya	60,7	83,7	2,3 m.	137,9	2	3
Rossiya Federatsiyasi	38,1	55,6	45,6	146,1	3	4
Hindiston	0,6	12,2	19,6	22,0 m.	24	5
Litva	3,4	11,5	184,0	3,3 m.	10	6
Qozog'iston	6,8	10,8	2,0 m.	160,0	5	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-noyabr)**



2022- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatga 55 ta xorijiy davlatdan tovarlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Braziliya, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Litva Qozog'iston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 439,7 mln AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 88,1 %ini tashkil qiladi.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan birqator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (62) 224-65-09